



Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasi.

www.tongyulduzi.uz

**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!**

N:48 (67005)

2014-yil
1-dekabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATIGA BAG'ISHLANGAN

**MAXSUS
SON**

BILIMDONLAR KAMOL TOPGAN YURT

**XALQARO DIPLOM SOHIBASI
KO'RGAZMA ISHTIROKCHISI**



Samarqand tumanidagi 24-umumta'lim maktabi geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi Ikrom Norboyev o'quvchilarni Vatanni sevish, ota-onani e'zozlash, o'zaro hurmat, vaqtni qadrlashga o'rgatadi.



– Qutlug' dargohning tarbiyalanuvchisi ekanimdan faxrlanaman. Bu iftixor, ayniqsa, bugun qalbimni o'zgacha shukuhga to'ldirmoqda. Bugungi ko'rgazmada «Mening ilk ustozim» deb nomlagan rasmim bilan ishtirok etmoqdaman.

Bu yaqinda poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabining tashkil topganiga bag'ishlab o'tkazilgan «San'at beshigi 85 yoshda» nomli ko'rgazma ishtirokchisi, mazkur maktabning 3-«B» sinf o'quvchisi Yasmina Karlovaning dil so'zlar.

Jajjigina Yasmina hali yosh bo'lishiga qaramay, o'tgan yili mamlakatimizdagi Germaniya elchixonasida hamda joriy yilda Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan rasmlar tanlovida ishtirok etib, diplom bilan taqdirlandi.

Yurtimizning keksa o'quv dargohlaridan biri bo'lgan mazkur san'at maktabini o'tgan yillar davomida ko'plab iste'dodli yoshlar bitirib chiqqan. Ayni paytda san'at maktabida rassomlik, musiqa va umumta'lim yo'nalishlarida saboq berilmoqda.

Ko'rgazmada o'quvchilar tomonidan ishlangan 150 dan ortiq rasmlar tomoshabinlarga o'zgacha zavq ulashdi. Ayniqsa, maktabdagi ijodiy hayot hamda bolajonlarning beg'ubor tasavvurlari aks etgan yorqin bo'yoqlardagi quvnoq suratlar ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ko'rgazma bolajonlarning jo'shqin kuy-quo'shiq va raqslari bilan davom etdi.

DIQQAT! DIQQAT!

«Tong yulduzi»
gazetasiga obuna
bo'lishga shoshiling!

**Nashr
ko'rsatkichi – 198**



«MAHALLAM TARIXINI O'RGANAMAN»

ko'rik-tanlovining respublika bosqichida bellashadilar

Suratdagi bu to'rt ahil dugona Samarqand tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchilari Maxfirat Shodiyeva, Madina Davronova, Zilola Baratova va Dinara Ismoilova bo'lishadi. Ular a'lo baholarga o'qish bilan birga, maktabning jamoat ishlarida faol ishtirok etishadi. Bundan tashqari, bu qizlar tarix faniga ham juda qiziqishadi. O'tgan o'quv yilida ular tarix fani bo'yicha maktabda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da faxrli o'rinlarni egallashgan edi. Qizlarni suhbatga chorlaganimizda birinchi bo'lib so'zlash istagini Maxfirat Shodiyeva bildirdi:

– Aytishlaricha, uzoq o'tmishda buyuk Sohibqiron bobomiz yoz kunlarining birida qishlog'imizga kelib, dam olgan ekan. Shunda yon-atrofda chumchuqlarning tinmay chug'urlagan ovozi eshitilgan. «Iye, bu qishloqning nomi «Chumchuqli» ekan-ku», deb qishlog'imizga shunday nom qo'yib ketgan ekan. Mahallamizda dehqonchilik, bog'dorchilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik,



to'quvchilik bilan shug'ullanadigan yigit-qizlar ko'p. Biz qishlog'imiz bilan faxrlanamiz.

– Sinfimizda 34 nafar o'quvchi o'qiydi, – deydi Madina Davronova. – Har birimiz maktabda tashkil etilgan turli fan to'garaklariga qatnaymiz. Yaqinda biz «Mahallam tarixini o'rganaman» ko'rik-tanlovida mahallamiz tarixi, hozirgi kungacha erishgan yutuqlarimiz, dolzarb muammolarni sahna ko'rinishi orqali ko'rsatib berdik. Tuman va viloyat bosqichida ishtirok etgan 20 ta mahallalar orasida 1-o'rinni oldik.

Zilola bilan Dinara ham ko'rik-tanlovdan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashishdi. Suhbatdan ma'lum bo'ldiki, bu qizlar sportni ham o'zlariga yaqin do'st tutgan ekanlar. Zilola bo'sh vaqtlarida sportning badminton turi bilan shug'ullansa, Dinara stol tennisining ashaddiy muxlisi ekan.

Zamon talabiga mos, har tomonlama yetuk, zukko, ilmga chanqoq, sportsevar yoshlarimizga kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tilab, xayrlashdik.



Jomboy tumanidagi 46-umumta'lim maktabi o'quvchilarining bo'sh vaqtlari hamisha mazmunli o'tadi.



ENG YAXSHI SOVG'A —

KITOB

Ta'lim maskanida zamon talablari asosida jihozlangan ARMda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan bir qatorda 1500 dona lotin yozuvidagi badiiy adabiyotlar, turli yo'nalishdagi ensiklopediyalar to'plamlari mavjud. Maktabdagi har bitta o'quvchi va o'qituvchi kutubxonaga a'zo.

Kitob o'quvchi nutqini o'stiradi, uning savodxonligini oshiradi. O'quvchilar qalbida kitobga mehr uyg'otish, ulami kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish maqsadida har oy bittadan «Kitob taqdimotlari» o'tkazib kelinmoqda. Shu bilan birga, maktabda «Eng yaxshi sovg'a — kitob» aksiyalarini o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida «Bobom, buvim va onamdan eshitgan ertaklarim» ko'rik-tanlovi ham tashkil etilgan. O'quvchilarning o'zlar tomonidan yozilgan ertaklar «Ertakchi bolalar» rukni ostida gazetalarda chop etib turiladi.

SO'ROVNOMA

YOKI QAYSI FANDAN UY VAZIFALARINI TAYYORLAYSIZ?

Muassasa ma'muriyati tomonidan sinflarda «So'rovnomalarda» o'tkaziladi. Ularda taxminan quyidagi savollar bo'ladi:

1. Qaysi o'qituvchining darslarini intizorlik bilan kutasiz? Nima uchun?
 2. Qaysi o'qituvchining darslarida zerikib qolasiz? Nima uchun?
 3. Qaysi fandan uy vazifalarini tayyorlaysiz? Qaysi fandan uy vazifalarini tayyorlash muhim emas, deb hisoblaysiz? Nima uchun?
- Xuddi shunga o'xshash so'rovnomalarda ota-onalar o'rtasida ham bo'lib o'tadi.

Kattaqo'rg'on shahar 11-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi rahbari Muhayyo NOSIROVA —

YILNING ENG YAXSHI MAKTAB DIREKTORI

Bugungi kunda mazkur ta'lim maskanida 1033 nafar o'quvchiga 50 nafar pedagog xodim ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. O'qituvchilardan biri «Do'stlik» ordeni, besh nafari O'zbekiston Respublikasining «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohiblari.



«Yilning eng yaxshi maktab direktori — 2014» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'olibi Muhayyo opa Nosirova rahbarlik qilayotgan ta'lim maskani hayoti bilan tanishar ekanmiz, shahar maktablari orasida reyting ko'rsatkichi bo'yicha qator yillardan buyon I o'rinni egallab kelayotgani, respublikada «Namunali maktablar» ro'yxatida ekanligi va joriy yilda maktab jamoasining Yapon grantini qo'lga kiritganini eshitib, behad quvondik.

Maktabda o'quvchilar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidori va qobiliyatini aniqlash maqsadida «Topqir, ziyarak, bilimdon», «Iqtidorli o'quvchilar bellashuvi», «Fan haftaliklari», «Zakovat», «7x7» intellektual musobaqalari o'tkaziladi. Musobaqa savollarini o'quvchilar o'zlar darsliklardan va qo'shimcha adabiyotlardan tayyorlashadi.

Seshanba — rus tili, chorshanba — ingliz tilida so'zlashish kuni deb belgilangan. Hatto shu kuni o'qituvchilar ham kunlik ish rejalarini rus va ingliz tilida yuritishadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar kunlik ish rejalariga «Men kiritgan yangilik»

kabi yangi noan'anaviy dars usullarini kiritishlari muntazam yo'lga qo'yilgan. Maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari Gulnoza Odilova, Zilola Mahmudova, matematika fani o'qituvchisi Erkin Nosirov, fizika fani o'qituvchisi Sayyora Imomovanning ish tajribalari viloyat miqyosida ommalashtirilgan.

«Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida fizika fanidan 8-sinf o'quvchilari Shohro'z Usmonov 3-o'rin, kimyo fanidan Madina Omonova 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

3 yildan buyon 8-dekabr O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan o'tkazib kelinayotgan «Prezident asarlarini o'rganamiz» ko'rik-tanlovining viloyat va respublika bosqichida o'quvchilar faxrli o'rinlarni egallashmoqda.

Maktab o'quvchilari uchun 21 ta fan to'garaklari, 4 ta sport to'garaklari tashkil etilgan. «Eng faol sinf», «Eng faol o'quvchi» tanlovlari doimiy o'tkazib kelinadi.

Birinchi ustozimga, keyinchalik sinf rahbarimga havas qilib, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan mehr, badiiy kitoblarni tinimsiz mutolaa qilishim, adabiyot, tarix fanlariga bo'lgan kuchli ishtiyoq meni o'qituvchi bo'lishga undadi, — deydi Muhayyo opa Nosirova. — Maktabga kirib kelgach, birinchi ishim o'quvchilar davomatini aniqlash bo'ladi.

«Yilning eng yaxshi maktab direktori» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida g'olib bo'lishim menga katta rag'bat, shu bilan birga, zimmamga yanada ulkan mas'uliyat yukladi.

– Bugungi kunda o'quvchilarning puxta bilim olishlari va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

IQTIDORLILAR – MAKTAB FAXRI

Ayniqsa, ta'lim jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish, tafakkur va dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, – deydi Jomboy tumanidagi 40-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi rahbari Shohista Namozova.

– Mazkur yilda ko'plab o'quvchilari-miz fan olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda yutuqlarga erishdi. 9-sinf o'quvchisi F. Kamolova fan olimpiadasining viloyat

bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi. Toshkentda o'tkazilgan «San'at g'unchalari» tanlovining respublika bosqichida 6-sinf o'quvchisi Ashraf Qaytmasov 2-o'rinni, «Yosh qalamkashlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 9-sinf o'quvchisi Dinara Nuriddinova diplom bilan taqdirlandi. Shu bilan birga, joriy yilda 4-sinf o'quvchisi Elbek Baydullayev karate bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Maktabimiz 2013 – 2014-o'quv yili yakuni bo'yicha umumta'lim maktablari



o'rtasida yil yakuni reyting natijalariga ko'ra 2-o'rinni egalladi.

Biz esa o'quvchilarning qo'lga

kiritajak yutuqlari bundan-da salmoqli bo'lishiga ishonchimiz komil. Zero, iqtidorlilar – maktab faxri.

ISTAK BO'LSA, BAS

40-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi 9-«B» sinfining yana bir a'lochi o'quvchisi Dinora Sherbekova 4-sinfdan buyon sardorlik vazifasini bajarib keladi. Eng asosiysi, u sinfini har tomonlama ilg'or bo'lishini xohlaydi.

– Mendan sinfdoshlarim sardorlik, to'garaklarga qatnash, badiiy kitob o'qish, she'rilar yozish, tanlovlarda ishtirok etishga qanday ulgurasan, deb so'rashadi. Mening esa javobim bitta, – deydi Dinora. – Avvalambor, har ishda istak, harakat bo'lsa, barchasini uddalash mumkin.

Sitora Abrorova ham mazkur maktabning 8-«A» sinfida o'qiydi. U bilan muloqotimiz chog'ida bu qizning serg'ayratligiga havasimiz keldi.

ORZULARI OSMON QIZ

– «Kitobxon oila» tanlovida birinchi o'rinni egallab, viloyat bosqichida ham munosib ishtirok etdim, – deydi Sitora zavq bilan.

– «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini qiziqish bilan o'qib chiqaman. Ayniqsa, unda beriladigan tengdoshlarim ijodidan namunalar menga juda yoqadi. Ingliz va rus tillarini puxta o'rganyapman. Bolalarni yaxshi ko'rganim bois, kelajakda bolalar shifokori bo'lmog'chim. Shuning uchun tabiiy fanlarni puxta o'zlashtirishga harakat qilyapman.

Sitoraning orzulari ko'pligiga zavqimiz oshib, uzoq guring qildik.

KO'KLARGA KO'TARGUM BAYROG'IM

Muhammadali Toshev gazetasimizning muxlislaridan biri. U nashrning har bir sonini sinchiklab kuzatib borar ekan.

Maktabini juda yaxshi ko'radigan bu o'quvchi sport zallari, fan xonalari, qo'yingki, bilim maskanidagi ibratli ishlar haqida to'lib-toshib gapirdi.

– Men sport bilan muntazam shug'ullanib boryapman. Yagona orzuim olimpiada va jahon chempionatlarida O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarish, – deydi Muhammadali ishonch bilan.

40-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Muhammadali Toshevning orzulari haqida «Tong yulduzi»ning alohida daftoriga qayd etib qo'ydik. U haqda vaqti kelib yana maqola yozsak, ne ajab.



ISTIQBOLI PORLOQ YOSHLAR

Samarqand tumani o'quvchilari o'tgan o'quv yili mobaynida ta'lim sohasida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishdi.

O'quvchi-yoshlarning huquqiy savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsadida «Huquq bilimdonlari» tanlovining respublika bosqichida 9-umumta'lim maktabi jamoasi faxrli o'ringa loyiq topildi. 2-umumta'lim maktabi 8-sinf o'quvchisi Zarina Salimova «OITS va giyohvandlikka qarshi birlashaylik» respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovida 3-o'rin, «Sog'lom bola davlat dasturini men qanday tushunaman» respublika insholar tanlovida 21-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi Shahzoda Muhsinova viloyatda birinchi, respublikada faxrli o'rinni egallagan. Tumanda erishilgan yutuqlar barobarida «Eng obod ta'lim muassasasi»

ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 15-umumta'lim maktabi 1-o'rin, 20-MTM 3-o'rinni egallab, respublika bosqichida faol ishtirok etdi.

Bundan tashqari, 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi Kamoljon Najmiddinov «Eng yaxshi elektron axborot ta'lim resursi» tanlovida 2-o'rin sohibi bo'ldi. Joriy yilning may oyida o'tkazilgan «Eng yaxshi chet tili fani o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida 37-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi Nargiza Raupova tumanda 1-o'rin, viloyatda 2-o'rinni egalladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida yo'l harakati qoidalarini targ'ib qilish maqsadida o'tkaziladigan «Yosh yo'l harakati nazoratchilari» ko'rik-tanlovida tumandagi 14-ta'lim muassasasi jamoasi tuman, viloyat va respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi.

Bugungi kunda Samarqand tumani XTMFMTTE bo'limi tasarrufida jami 53 ta umumiy o'rta, 33 ta maktabgacha, 5 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, jumladan, «Barkamol avlod» bolalar markazi, 2 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi hamda 2 ta bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat ko'rsatmoqda.

FAOL O'QITUVCHILAR – TUMAN SHARAFI

Umumta'lim maktablarida o'tgan o'quv yili mobaynida jami 1905 nafar pedagog xodimlar ish olib borishdi. Bo'lim tasarrufidagi umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'n sakkiz nafar o'qituvchilarning ish tajribalari tuman miqyosida, 12-umumta'lim maktabining kimyo-biologiya fani o'qituvchisi Feruza Abdullayevaning «Genetikadan masalalar to'plami» hamda 37-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi Zarina Saloyevaning «Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi» nomli qo'llanmalari viloyat miqyosida ommalashtirilgan.

Lesson 12

My English teacher is «Tong yulduzi»

I want to know English better and I've been learning it from my childhood. In addition to I follow the page of «Let's learn English» in «Tong yulduzi». I learn many new interesting things all the time there – said Dilnoza RAHMATULLAYEVA pupil of 9th form 24th school in Samarkand district.



N. SULTONOV
olgan suratlar

Everyone shall have the right to education the state shall guarantee free secondary education. Schooling shall be under state supervision.

Article 41 from Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi.

Sport games (Sport o'yinlari)

Translate and fill the box using these words: track, vest, shorts, running shoes or spikes, ring, slopes, swimming costume(women); trunks(men), vest, shorts, gloves, boots, sticks, ski suit, ski boots, tennis-court.

Name	Place	Equipment
athletics		
swimming	pool	
boxing		
skiing		
tennis		Tennis-ball

Things we can do with a ball (Koptok bilan bajariladigan holatlar)



Throw it – otmog



Pass it – oshirmog



Hit it – urmog



Catch it – ushlamoq



Kick it – tepib otmog



Head it – bosh bilan urmog

True or false?

(To'g'rimi yoki noto'g'ri?)

The people who watch a football match are the audience.
The official who gives the score in tennis is the umpire.
Athletes wear shorts.
You need a stick to play hockey.
Boxers wear gloves. **True**
Tennis is played on a pitch.
The referee in football has a whistle.
Women wear trunks for swimming.



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Do you tell the difference between the twins?

(Egizaklarni ajrata olasizmi?)



The school number 44, pupils of 9th form Fotima and Zahro SHARIPOVA are the excellent pupils of this school. They are fond of labour but in future Fotima is going to be a teacher and Zahro a doctor.

Dilbar's pets (Dilbarning jonivorlari)

Complete the sentences with these words:

for a walk, look after, Sunday, bones, pets, fish, corn, feed, cat, dog.



Dilbar goes to her granny in Bukhara this ... she asks her friend to ... her ... She has got a dog, a cat and hens. Lobar must ... the dog two times a day and take him ... every morning and evening. There is ... in the fridge for the ... and ... for the ... the hens eat ...

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

Tongue twisters (Tez aytishlar)

Don't trouble trouble until trouble troubles you.

We surely shall see the sun shine soon.

Riddles (Topishmoqlar)

It has legs but can't walk.



Clean, but not water,
White, but not snow.
Sweet, but not ice-cream,
What is it?



Gulruh SOLIYEVA

CHAQNOQ YULDUZLAR

Ijod ahli uchun o'zi tug'ilib o'sgan bezir makonning qiyosiga so'z topishdan ulug'roq baxt yo'q. Yer yuzining sayqali bo'lmish Samarqand sha'niga yangragan kuy-qi' shiqlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bobokalonimiz Mirzo Ulug'bekning yuksak rasadxonasidagi nodir asarlarining asli ildizi tabarruk tuproqqa borib taqaladi. Tahririyatimizga o'z ijodiy ishlarini yo'llagan samarqandlik chaqnoq yulduzlarga buyuk ajdodlarimizning porloq yo'llini tilaymiz.

MEHRIBON BUVIJONIM

Farishtaday yuzlari,
Go'zal qosh-u ko'zlari,
Ma'no to'la so'zlari,
Mehribon buvijonim!

Ertak aytar, bolam, der,
Jonimdagi lolam der,
Sen-la go'zal olam der,
Mehribon buvijonim!

Onajonim onasi,
Mehring ham xonasi,
G'am ko'rmasin dunyosi,
Mehribon buvijonim!

Diydorabonu TO'XTAYEVA,
Pastdarg'om tumanidagi
28-IDUMIning 5-sinf o'quvchisi



KUZGA RAHMAT AYTAMIZ

G'ir-g'ir shamol yeladi,
Kuzni olib keladi.
Mevalar ham pishadi,
Yerga to'p-to'p tushadi.

Bizlar meva teramiz,
Qo'shnilarga beramiz.
Uyga quvnoq qaytamiz,
Kuzga rahmat aytamiz.



Shahzoda ISMOILOVA,
Jomboy tumanidagi 46-umumta'lim
maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

ORZUGA BEL BOG'LAYDI



Sport bilan hamnafas,
Bo'lsin har bir yosh avlod.
Sog'lom bo'lib ulg'aysin,
Omad bo'lsin zo'r qanot.

Sport tanning sog'ligi,
Baquvvatlik, teranlik.
Kelajakning ko'zgusi,
Sport bilan yuraylik.

Sog'lom Vatan farzandi,
Kamolotga yetadi.
Yurtimizning sha'nini,
Yuksaklarga eltadi.

Ular Vatan bayrog'in,
Hilpiratib ko'tarsin.
Omadi kelsin doim,
Orzulari ushalsin.

Sportning har bir turi,
Sog'lomlikka chorlaydi.
Shuning uchun yosh avlod,
Orzuga bel bog'laydi.

Laylo AVAZBEKOVA,
Qo'shrabot tumanidagi
48-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

ISHONCHINI OQLASHIM KERAK



Onam bergan oq sutni oqlab,
Duosini dilimda saqlab,
Mudom ildam qadamlar tashlab,
Ishonchini oqlashim kerak!



Ko'zimdagi quvonchga sherik,
Yuzimdagi sevinchga sherik,
Meni deya qoqmaydi kiprik,
Mehrin dilda saqlashim kerak!

Munavvar TOLLIBOYEVA,
Ishtixon tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

ZAMONAVIY ERTAK

Bu ertak afsonaviy pahlavonlar yoki uchar gilamlarda dunyo kezgan bahodirlar haqida emas, balki sizning ukangiz qatori Ilhomjon degan bolaning ajoyib ishlari va sarguzashtlari haqida bo'ladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Ilhomjon degan bola bor ekan. O'zi juda sho'x, o'yinchoqlari ham ko'p ekan. Ikki va uch g'ildirakli velosipedi, besh-olti xil mashinalari, batareyali fonari, ayiqchasi, yana boshqa o'yinchoqlari bor ekan. Bu o'yinchoqlarni dadasi, oyisi, bobosi, buvisi tug'ilgan kunda sovg'a qilishgan ekan. Ilhomjon o'yinchoqlarni ikki-uch kunda buzari yoki sindirib qo'yarkan. Shunda u dadasiga: - Dada, o'yinchog'im buzilib qoldi, tuzatib bering, - derkan.

Dadasi o'yinchoqni tuzatib bersa, Ilhomjon yana buzib qo'yarkan. Bu ahvol tez-tez qaytarilar ekan. Bir kun dadasi Ilhomjoniga:

- Bo'ldi, endi buzsang, o'yinchog'ingni o'zing tuzatasana, - debdi.

Ko'p o'tmay velosipedining g'ildiragi chiqib ketibdi, mashinasi yurmay qolibdi. Ilhomjonning



rosa boshi qotibdi. Dadasiga aytgani uyalibdi. Bolg'a, shrup va boshqa asboblarni topib, o'yinchoqlarini o'zi tuzatmoqchi bo'libdi. Qancha urinsa ham bo'lmabdi. Keyin siniq mashinalar qismlaridan yangi mashina yasamoqchi bo'libdi. Velosipedining fonari-yu ayiqchasining batareyalari, aravachasining g'ildiraklarini bir-biriga ulab, o'zicha yangi mashina yasabdi. Ko'rinishidan parovozga ham, ko'tarma kranga ham, raketaga ham, odam ko'rinishiga ham o'xsharmish. Ichiga batareya, fonar, telefon qismlarini

joylashtiribdi. Nihoyat, Ilhomjon oxirgi simni ulayotib:

- Mana, endi yangi mashinam bitdi, - debdi.

Shunda yangi mashina sal qimirlab: - Ha-li bit-ga-ni yo'q. Ba-ta-reya yax-shi ulan-ma-gan, - deb ovoz chiqaribdi.

Ilhomjon qo'rqib, qotib qolibdi. Mashina esa to'xtamay gapirarmish:

- Ba-ta-reya-ni qay-ta u-lab qo'y! Ba-ta-reya-ni qay-ta u-lab qo'y!

Ilhomjon emaklab borib, batareya simlarini qaytadan ulab qo'yibdi. Yangi mashina yana gapni boshlabdi:

- Men ro-bot-man! Men ro-bot-man!

Ilhomjon asta mashina oldiga kelibdi. Robot undan so'rabdi:

- Se-ning is-ming ni-ma? Se-ning is-ming ni-ma?

- Mening ismim Ilhomjon, - debdi bola.

- Se-ning is-ming Ilhom-jon, men robotman. Sen-ga do'st bo'-la-man! Bir-ga-la-shib o'y-nay-miz! May-li-mi?

Shunday qilib, Ilhomjon o'z ixtirosidan xursand bo'libdi.

Anvar TOJIYEV

TUG'ILGAN KUNING MUBORAK

Farangiz «Tong yulduzi» gazetasi-ning doimiy muxlisi. Uning she'rlari respublika matbuotida chop etilib turadi.

- «Kitobxon oila» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rin sohibi bo'ldim.

2014-yilda sportning penchak silat turi bo'yicha viloyatda birinchi o'rinni egalladim, - deydi Farangiz faxr bilan.

Tirishqoq, serg'ayrat mushtariy bilan muloqotimiz juda maroqli o'tdi. Bunday o'quvchilar bilan suhbatlashish kimga yoqmaydi, deysiz. Ha, aytganday, tahririyatimiz xodimlari ham iste'dod sohibasini 4-dekabr - tug'ilgan kuni bilan tabriklaydi.

SAMARQANDIM

Bog'-u bo'ston Samarqandim,
Yurtga doston Samarqandim.
Go'zal shahrim Samarqandim,
Nur guliston Samarqandim.

Non ifori anqib turgan,
Mehnatidan kamol topgan.
Bobo shahrim Samarqandim,
Momo shahrim Samarqandim.

Farangiz IBRAGIMOVA,
Jomboy tumanidagi
40-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabining
9-«B» sinf o'quvchisi

Samarqand tumanidagi 44-umumta'lim maktabida bizni shu ta'lim maskanining sobiq o'quvchisi, uzoq yillar mazkur maktabda rahbarlik qilgan, hozirda o'quvchilarning sevimli ustози Siforat opa Pirmuhammedova ili qutib oldi.



Siforat opaning ayitishicha, maktabda iqtidorli o'quvchilar talaygina ekan. Ular tuman, viloyat va respublika tanlovlarida, bilimlar bellashuvlarida faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelishmoqda.

Fursatdan foydalanib, izlanuvchan va bilimdon o'quvchilar bilan uchrashish istagida ekanligimizni aytganimizda, Siforat opa bir zumda bizga iqtidorli o'quvchilarni tanishtirdi.

Suhbat chog'ida 6-sinf o'quvchisi Shohruz Xudoyorov bo'sh vaqtlarini sport to'garaklarida o'tkazishi, 7-«A» sinf o'quvchilari Begzod Baxtiyorov, Durdona Abdullayeva, Dinara Murodova har bir fanga mehr bilan yondashishi, 9-«B» sinf o'quvchisi Marjona Qurbonova biologiya, chet tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»da ishtirok etgani, Nodira To'rayeva badiiy kitob o'qishga qiziqishini bilib oldik.

Eng asosiysi, maktab o'quvchilari nafaqat kitobxon, gazetxon ham ekan. «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qisharkan. Birinchilardan bo'lib 2015-yil uchun sevimli nashriga obuna bo'lishibdi.

Bilimdonlarning yutuqlari, kelgusidagi orzu va istaklarini eshitib biz ham quvondik va aslo bo'sh kelmang, izlanishda davom eting, aziz gazetxonlar dedik!

F. JALILOVA

Samarqand tumanidagi 24-umumta'lim maktabida 695 nafar o'quvchilarga 46 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berishadi.

Iroda Doniyorova rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskanida yosh avlod uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday imkoniyatlarga javoban o'z iqtidori, iste'dodi, erishayotgan muvaffaqiyatlari bilan javob berayotgan o'quvchilarning ko'pligi bizni juda quvontirdi.

– Sinfimizni iqtidorlilar sinfi deyishadi. Boisi, sinfdoshlarim maktab, tuman, respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tanlov va musobaqalarda yutuqlarga erishmoqda. Ergash O'rinov sinfimizning faxriga aylangan, desak adashmayman. Sportning kikkoksing turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda uning ko'p marta qo'li baland kelgan. Men bo'sh vaqtlarimda she'rilar yozib turaman. She'rilarimni, albatta, tahririyatga jo'nataman, – deydi umumta'lim maktabining 8-sinf sardori Xumora Nurullayeva.

BILIMDONLAR DAVRASIDA



CHEMPIONLAR YASHAYDI BUNDA...

Samarqand tumanida bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish maqsadida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmogda.

Tumandagi ta'lim muassasalarida 2 ta stadion, 39 ta sport zali, 42 ta basketbol, 48 ta voleybol, 21 ta qo'l to'pi hamda 44 ta futbol maydoni jami 196 ta sport inshooti mavjud. Besh mingdan ortiq o'quvchilar sportning turli seksiyalarida qatnashib kelmoqda.

O'tgan o'quv yili Tailandda o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan sportning muaytay turi bo'yicha jahon chempionatida 2-son Bolalar va o'smirlar sport maktabi a'zolari Shahriyor Jo'rayev va Savlat Ergashevlar faxrli 1-o'rinni egallashib, jahon chempioni bo'lishdi.



Jomboy tumanidagi 40-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi Elbek Baydullayev karate bo'yicha O'zbekiston chempioni

A. HAMIDULLAYEV olgan surat

«Sog'lom bola yili» munosabati bilan Urgut tumanidagi 85-umumta'lim maktabida sun'iy chim bilan qoplangan, zamon talablariga to'liq javob beradigan sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

SPORT BILAN HAMNAFAS

Ayni kunda tuman sport inshootlarida umumta'lim maktablarining 69 880 nafar o'quvchi-yoshlari jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishmoqda. Sog'lomlashtirish guruhlari o'quvchilarning 14 562 nafari qizlardir.

Shu bilan bir qatorda tumanda 1-, 2-, 3-Bolalar va o'smirlar sport maktablari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi viloyat filiali hisobidan 2004 – 2014-yillarga mo'ljallangan dastur asosida 14 ta sport zali, bolalar musiqa va san'at maktabi qurilib foydalanishga topshirildi hamda barcha zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Joriy yilda ham jamg'arma tomonidan barpo etilayotgan 120-umumta'lim maktabining sport zali qurilishi davom etmoqda.

O'quv yili davomida bo'lib o'tadigan bayram tadbirlari sport musobaqalarida o'quvchi-yoshlar faol qatnashib kelishmoqda.

Tuman umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Quvnoq startlar» televidion sport musobaqalari ham muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Mustaqilligimizning 23-yilligiga bag'ishlab stol tennis, voleybol, kurash, badiiy gimnastika, futbol musobaqalari tashkil etildi.

Ayniqsa, tumandagi umumta'lim maktablarida «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab «Otam, onam, men – sportchilar oilasi», turkumida milliy xalq o'yinlarining keng miqyosda o'tkazilayotgani barchaning e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarning intellektual, ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bu kabi tadbirlar ommaviy axborot vositalari orqali ham keng yoritilmoqda.

Bir necha yillardan buyon Samarqand tumanidagi 44-umumta'lim maktabida «Gulibodom» folklor musiqia dastasi faoliyat yuritib kelmoqda.

«GULIBODOM»NING QUVNOQ QO'SHIG'I



Ustoz Jamshid Ahmedov rahbarligidagi mazkur dasta tuman, viloyat, respublika tanlovlarida faxrlari o'rinni qo'lga kiritib kelmoqda. Jumladan, «Yagonasan, muqaddas Vatan – 2014» tanlovini viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, Urganchda o'tkazilgan respublika bosqichida ham faxrlari o'rin nasib etdi.

Bugungi kunda «Gulibodom»ning qalb taftidan yaralgan quvnoq qo'shiqlari dillarni yayratmoqda.



Maqsadbek YO'LDOSHEV



Shahzoda XOLIQOVA



Sevara ODILOVA

20-noyabrden 20-dekabr gacha RESPUBLIKAMIZDA «YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI»

Odatiy kunlarning biri edi. Sultonovlar oila a'zolari erta tongdan o'z ishlariga o'tlandilar. Uyda besh yashar Zilola va uning buvisi Gulnora xola qolishgan edi.

Gulnora xola sakson besh yoshni qoralagan, tobi qochib, to'shakka mixlanib qolgan kunlar edi. Zilola buvisi bilan nonushta qildi. Birozdan so'ng qo'shni xonalardan birini tutun qoplaganini ko'rib qolgan qizcha darhol eshikni yopdi. Is hidi bir zumda boshqa xonalarni ham qopladi. Zilola eshikni ichki tomondan ocha olmadi va darhol yong'in xavfsizligi xizmatining 101 raqamiga qo'ng'iroq qilib, uy manzilini, ustidan ota-onasi qulflab ketishgani, keksa buvisi bilan qolganini aytdi.

Yosh qizaloqning harakati tufayli ikki insonning hayoti saqlab qolindi.

A. RAHIMBERDIYEV

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIRI!

«TARIXIY MASKAN» AYLANMA KROSSVORDI



1. Samarqandda tavallud topgan ma'rifatparvar adib, «Padarkush» asari muallifi. 2. Me'moriy obidalar bilan tanilgan tarixiy maydon. 3. Viloyatda ko'plab yetishtiriladigan rezavor va poliz ekinlari majmuyi. 4. Viloyat hududidan oqib o'tuvchi daryo. 5. Navoiy va Jizzax viloyatlari bilan chegaradosh tuman. 6. Hafta kuniga nomdosh shaharcha. 7. Tarixchi Abu Tohirxo'ja Samarqandiy yozib qoldirgan Samarqand tarixiga oid asar. 8. Narpaylik o'zbek shoirasi. 9. Kichkintoylarga mansub teatr turi. 10. Shifobaxsh ma'dan suvli sihatgoh. 11. Ommalashgan to'pli sport o'yini. 12. «Temir xotin» komediyasi muallifi, dramaturg.

O'QING-CHI!

Shakl aylanalaridan bosh harfni topib, chiziqlar bo'yicha o'qish bilan Samarqandning qadimiy shahri nomi bilan ataluvchi tezyurur poyezd nomini bilib oling.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

Gazetamizning 47-sonida berilgan «QASHQADARYO DIYORI» TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORDning javoblari:

1. Naqshab. 2. Muborak. 3. Abdullayev. 4. Qizilqum. 5. Amudaryo. 6. Turkman. 7. Futbol. 8. Saksovol. 9. Echkemar. 10. Pachkamar. 11. «Onajon». 12. Mirshikor. 13. Hisorak. 14. Murodov. 15. Oqsaroy. 16. Na'matak. 17. «Sho'rtan». 18. Chiyabo'ri. 19. Chiroqchi. 20. Zarafshon.

Shakl markazida: Shahrisabz shahri. Amir Temur haykali.

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Azamat Umarovga va boshqa mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

SAMARQANDCHA PISHIRIQ

Bozorida qilsa! Bolajonlar, bugun sizlarga samarqandcha bo'g'irsoq tayyorlashni o'rgatmoqchimiz. Marhamat, bu shirinlikni pishirib ko'ring, mazasi og'zingizda qoladi.

Kerakli masalliq: 300 gr. sut, 1 oshqoshiq xamirturush, un, yarim piyola shakar, o'simlik yog'i, qand upasi.

Tayyorlanishi: dastlab iltirilgan sutga xamirturush, so'ng shakar solib aralashiriladi va 2 oshqoshiq yog', un qo'shilib yumshoq xamir qoriladi. Xamir biroz ko'pchishi uchun issiq joyga qo'yiladi. Yarim soatdan so'ng xamir

zuvalachalarga bo'linadi. Bo'lingan xamirlar 0,5 santimetr qalinlikda yoyiladi va turli shakllar kesiladi.

Kesilgan shakllar qizdirilgan yog'ga solib, qizartirib olinadi. Tayyor pishiriq ustiga qand upasi sepib, bezatishingiz ham mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Ushbu sonni tayyorlaganlar: F.Adilova, F.Matyoqubov, A.Karimov, Yu.Abdullayev, N.Qidiraliyev, D.Hotamova, J.Matyoqubov, N.Abdullayeva, O.Tursunboyeva, Sh.Maxmadiyev, Z.Mamatqulova.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondlari.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etiladi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 29417
Buyurtma – S 1501